

HISTORICAL MONUMENTS OF THE FERGANA VALLEY

Abduhamidov Doniyorbek, Namangan State University, 2nd-year student in History.

doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Abstract: This article discusses monuments representing the rich historical heritage of the Fergana Valley. Fergana has long been one of the political, cultural, and economic centers of Central Asia, with hundreds of historical monuments located in its ancient cities. In particular, palaces, mosques, mausoleums, and other architectural monuments from the Kokand Khanate period demonstrate the uniqueness of this region. This article analyzes the historical monuments of the valley, the history of their creation, architectural features, current state, as well as the work being carried out to preserve, restore, and pass them on to future generations. During the research, a deep analysis is carried out based on scientific literature, historical documents, archival materials, and local sources.

Keywords: Fergana Valley, historical monuments, cultural heritage, Kokand Khanate, architecture, archaeological finds, restoration, historical monuments, conservation, tourism.

ISTORICHESKIE PAMYATNIKI DOLINY FERGANY

Abduxamidov Doniyorbek, Namaganskiy Gosudarstvennyy Universitet, student 2-go kursa napravleniya "Istoriya".

doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya: V dannoy statye rassmatrivayutsya pamyatniki, predstavlyayushchiye bogatoye istoricheskoye naslediye Ferganskoy doliny. Fergana izdavna byla odnim iz politicheskix, kulturnyx i ekonomicheskix sentrov Sentralnoy Azii, i v drevnix gorodax, raspolojennyx na yee territorii, naxodyatsya sotni istoricheskix pamyatnikov. V chastnosti, dvorsy, mecheti,

mavzolei i drugiye arxitekturnye pamyatniki perioda Kokandskogo xanstva demonstriruyut unikalnost etogo regiona. V dannoy statye analiziruyutsya istoricheskiye pamyatniki doliny, istoriya ix sozdaniya, arxitekturnye osobennosti, sovremennoye sostoyaniye, a takje provodimaya rabota po ix soxraneniyu, restavratsii i peredache budущim pokoleniyam. V xode issledovaniya provoditsya glubokiy analiz, osnovannyy na nauchnoy literature, istoricheskix dokumentax, arxivnyx materialax i mestnyx istochnikax.

Klyuchevye slova: Ferganskaya dolina, istoricheskiye pamyatniki, kulturnoye naslediye, Kokandskoye xanstvo, arxitektura, arxeologicheskiye naxodki, restavratsiya, istoricheskiye pamyatniki, oxrana, turizm.

FARG‘ONA VODIYSINING TARIXIY YODGORLIKLARI

**Abduhamidov Doniyorbek, Namangan Davlat Universiteti, Tarix
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.**

doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining boy tarixiy merosini ifodalovchi yodgorliklar haqida so‘z yuritiladi. Farg‘ona qadimdan Markaziy Osiyoning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, uning hududida joylashgan qadimiy shaharlarda yuzlab tarixiy obidalar mavjud. Ayniqsa, Qo‘qon xonligi davriga oid saroylar, masjidlar, maqbaralar va boshqa me‘moriy yodgorliklar bu o‘lkaning o‘ziga xosligini namoyon etadi. Ushbu maqolada vodiyning tarixiy yodgorliklari, ularning yaratilish tarixi, me‘moriy xususiyatlari, hozirgi holati, shuningdek ularni saqlab qolish, restavratsiya qilish va kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari hamda mahalliy manbalarga tayangan holda chuqur tahlil olib boriladi.

Kalit soʻzlari: Fargʻona vodiysi, tarixiy yodgorliklar, madaniy meros, Qoʻqon xonligi, meʼmorchilik, arxeologik topilmalar, restavratsiya, tarixiy obidalar, muhofaza, turizm.

KIRISH

Fargʻona vodiysi Oʻzbekistonning eng qadimiy va boy tarixiy-madaniy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda ming yilliklar davomida turli sivilizatsiyalar, davlatlar va madaniyatlar shakllangan boʻlib, ular oʻzlarining betakror meʼmoriy yodgorliklari, diniy inshootlari va tarixiy obidalari orqali bugungi kungacha saqlanib qolgan. Xususan, Qoʻqon, Margʻilon, Andijon va Fargʻona shaharlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar — masjidlar, madrasalar, maqbaralar, saroylar va qalʼalar — yurtimizning bebaho madaniy merosidir. Ushbu maqolada Fargʻona vodiysidagi tarixiy yodgorliklarning oʻrni, ularning tarixiy ahamiyati, meʼmoriy xususiyatlari va hozirgi kundagi holati oʻrganiladi. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, ushbu obidalarni asrab-avaylash, restavratsiya qilish va kelajak avlodga yetkazish masalasida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish zaruratida namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fargʻona vodiysi arkeologiyasiga oid adabiyotlar keng va turli yoʻnalishlarda boʻlib, ular oʻrta asrlar, zamonaviy arkeologiya, shahar madaniyati, hunarmandchilik, agrar va ijtimoiy rivojlanish kabi turli mavzularni oʻz ichiga oladi. Barcha ilmiy manbalar aniq metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi, bu esa oʻz navbatida Fargʻona vodiysining tarixini, madaniyatini va ijtimoiy tuzilishini tushunishning chuqurroq imkoniyatini yaratadi.

1. Anarbaev, Matbabaev B. "An Early Medieval Urban Necropolis in Fergana"

Ushbu maqola Fargʻona vodiysidagi oʻrta asrlar nekropollari haqida batafsil maʼlumot beradi. Bu ishda nekropol tahlili, uning shahar madaniyati bilan bogʻlanishi, shuningdek, oʻrta asrlar davridagi ijtimoiy tizimning muhim

jihatlari haqida o'rgatilib, o'sha davr arkeologiyasiga yondashuvning metodologik asoslari berilgan.

Shu o'rinda mustaqillikning ilk yillarida vodiya davom ettirilgan arxeologik tadqiqotlarni ham alohida ta'kidlash joiz. Ulardan biri B.X.Matboboev va A.Anarbaev tomonidan Namangan viloyati Pop tumanidagi Munchoqtepa qabr-qo'rg'oni va oilaviy xilxonasida 1987-1993-yillarda olib borilgan izlanishlar hisoblanadi. Bu yerdagi tadqiqotlar har qalay boshqalariga nisbatan to'xtab qolmagan va dunyoga mashhur topilmalarni O'zbekiston tarixi faniga taqdim etgan.

2. Абдулгазиева Б. "Археологические памятники Мархаматского района Андижанской области"

Marhamat tumanidagi arxeologik yodgorliklar o'rganish bo'yicha bu ishda arxeologik qazishmalarning natijalari va ularning mintaqaviy tarixiy rivojlanishiga ta'siri batafsil keltirilgan. Bu tahlil, xususan, Farg'ona vodiysi o'lkashunosligini o'rganishda keng qo'llaniladigan metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

3. Анарбаев А., Максудов Ф.А. *Древний Маргилан (Из истории земледельческой и городской культуры Ферганы)*

Ushbu monografiya agrar va shahar madaniyatining rivojlanishi batafsil tahlil qilinadi. Tahlil metodlari esa, ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy tahlilga asoslangan. Bu manba, Farg'ona vodiysining agrar va shahar madaniyati tarixi bo'yicha kengroq tasavvur beradi.

4. Xushnudbek Mamadaliyev *Farg'ona vodiysi shaharlarining tarixi (XIX – XX asr boshlarida)*

Bu monografiya Farg'ona vodiysining XIX-XX asr boshlari shaharlarining tarixini o'rganadi. Metodologik nuqtayi nazardan, tarixiy va madaniy tahlilning zamonaviy yondashuvlarini qo'llagan holda, shaharlar rivojlanishining asosiy

omillari ko'rsatilgan. Ushbu asar, zamonaviy tarixshunoslikda yangi metodlarni qo'llashga oid yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Xususan, quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Tarixiy tahlil usuli** - Tarixiy manbalarni o'rganish orqali, Farg'ona vodiysining o'rta asrlar va yangi davr tarixini, shuningdek, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilish mumkin. Bu metod, shaharlar tarixini va ularning jamiyatdagi o'rni va rolini aniqlashga yordam beradi.
2. **Me'moriy tahlil** - yodgorliklarning me'moriy xususiyatlarini tahlil qilish.
3. **Ijtimoiy va iqtisodiy tahlil metodlari** - Ijtimoiy tuzilish va iqtisodiy tizimlarni o'rganish, shaharlar madaniyatining rivojlanishini tahlil qilishda asosiy metodlardan biridir. Farg'ona vodiysining o'rta asrlar va yangi davr iqtisodiyoti va ijtimoiy tizimlari o'rganilganda bu metod qo'llaniladi.

NATIJALAR

Farg'ona vodiysi, Mamlakatimizning sharqida joylashgan va tarixan o'ta boy madaniy merosga ega hududdir. Bu mintaqqa qadimdan turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasida madaniy va savdo aloqalarining markazi bo'lgan. Farg'ona vodiysining tarixiy yodgorliklari juda ko'p bo'lib, ularning har biri o'zining tarixiy va madaniy ahamiyatiga ega.

Farg'ona vodiysi (Farg'ona soyligi) — O'rta Osiyodagi tog'lar orasida joylashgan vodi, O'rta Osiyoning yirik tog' oralig'i (soylik) botiqlaridan biri. Shimoldan Tyan-Shan, janubdan Hisor-Olay tog' tizmalari bilan o'ralgan. Asosan, O'zbekiston, qisman Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari hududida joylashgan. Katta qismi Turkiston va Olay tizmalarining shimoliy yonbag'irlariga borib taqaladigan uchburchak shaklida bo'lib, shimoli-g'arbdan Qurama tizmasi va Chatqol tizmasi, shimoli-sharqdan Farg'ona tizmasi bilan o'ralgan. G'arbda (eni 8-10 km) „Xo'jand darvozasi“ orqali Toshkent — Mirzacho'l botig'i bilan tutashgan. Uzunligi 300 km, eni 60-120 km, eng keng

joyi 170 km, maydoni 22 ming km². Balandligi g'arbida 330 m, sharqda 1000 m. Farg'ona vodiysining umumiy tuzilishi ellipssimon (bodomsimon) shaklda bo'lib, g'arbdan sharqqa tomon kengayib boradi.



1. Xaritada 2. Sun'iy yo'ldosh tasviri 3. Farg'ona vodiysi

Norbo'tabiy madrasasi - Qo'qondagi me'moriy yodgorlik (18-asr oxiri). Qo'qon xoni Norbo'tabiy hukmronligi davrida qurilgan. Xalq orasida Madrasai Mir nomi bilan ham yuritiladi.

Norbo'tabiy madrasasi chorsu maydoni yaqinida qurilgan. Bir qavatli, hovlili, to'g'ri to'rtburchak tarhli (52x72 m), 4 burchagiga minora-guldastalar ishlangan. Hovli (38x38 m) atrofiga qator ravoqli xujralar joylashgan. Peshtog'i shimolga qaragan. Miyonsaroyning 2 tarafida peshtoq bo'ylab tutashgan gumbazli masjid va 12 ta derazali (panjaralar o'rnatilgan) darsxona mavjud. Norbo'tabiy madrasasi pishiq g'ishtdan qurilgan. Xonalar ichi ganchsuvoq qilingan. Masjidning gumbaz osti sharafasi va mehrobining yulduzsimon bezaklari serhasham ko'rinadi. Eshiklari garih naqshlar bilan bezatilgan, ichki qismida esa o'ymakori islomiy naqsh qo'llanilgan. Norbo'tabiy madrasasining tashqi ko'rinishi Buxoro me'morlik maktabi uslubiga xosdir.

Madrasai Mir jome masjidining tarixi Norbo'tabiy madrasasining qurilishi bilan bog'liq. Norbo'tabiy (1763 - 1798) Qo'qon xonligining beshinchi xoni bo'lib, u uchinchi xon Abdukarimbiyning (1733 - 1750) nabirasidir. Norbo'tabiy Qo'qonga xon bo'lganidan so'ng bu madrasani qurdirishni boshlagan va u 1798-yilda to'la qurib bitkazilgan.



Axsikent (Namangan viloyati) - Fargʻona vodiysining qadimiy poytaxtlaridan biri.

Axsikent (shuningdek, Axsikat; inglizcha manbalarda Akhsikath) — Oʻzbekiston Respublikasi Namangan viloyati Toʻraqoʻrgʻon tumanidagi Shahand qishlogʻi hududida, Sirdaryoning oʻng sohilida joylashgan qadimiy shahar



xarobasi. Miloddan avvalgi III—II asrlarda vujudga kelgan, IX—X asrlarda Fargʻona vodiysining poytaxti boʻlgan. Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida tasvirlangan shaharlardan biri.

Tarixchilarning fikricha, u arab istilosidan avval Fargʻona xonligining siyosiy, madaniy va savdo markazi boʻlgan. 17-asrda zilzila oqibatida vayron boʻlgan.

Qoʻqon Xon saroyi (Xudoyorxon saroyi) - Qoʻqonning haqiqiy marvaridi va shaharning asosiy tarixiy diqqatga sazovor joylaridan biri - Xudoyorxon saroyi, uni xalq orasida "Qoʻqon oʻrda" deb ham atashadi.

1871-yilda Xudoyorxon katta saroy qurdiradi. Bu ulugʻvor majmua yettinchi xon saroyi boʻlgan va xon gʻoyasiga koʻra Qoʻqon hukmdorining qudratini eslatish uchun avvalgi saroylardan kattaligi va muhtasham bezaklari bilan ustun boʻlishi kerak edi.

Oʻrta Osiyo islomiy arxitekturasining eng yorqin namunalaridan hisoblanadi. Saroy oʻzining hashamatli peshtoqi, koʻhna ayvonlari, naqshinkor ganch oʻymakorligi, sirlangan koshin bezaklari bilan diqqatga sazovor



boʻlib, unda dastlab 119 ta xona bor edi, va bir nechta ichki hovlilar mavjud

bo'lgan. Me'moriy bezaklarida xalqimizning an'anaviy bezak san'ati, husnixat va naqshkori uslublari mujassam etilgan. Bugungi kunda Xudoyorxon saroyi muzey sifatida faoliyat yuritib, Farg'ona vodiysining boy tarixini namoyon etuvchi muhim madaniy obida hisoblanadi. Saroydan hozirgi kungacha atigi 2 ta hovli va 19 ta xona saqlanib qolgan.

Jadval: Farg'ona vodiysi tarixiy yodgorliklarining umumiy tavsifi:

Yodgorlik nomi	Joylashuvi	Qurilgan yili	Qisqacha tavsif	Turi
Axsikent shahri	Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, Shahand qishlog'i	Miloddan avvalgi III–II asrlar	Qadimiy shahar xarobalari, IX–X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan.	Arxeologik yodgorlik
Quva shahri	Farg'ona viloyati, Quva tumani	Miloddan avvalgi II asr	Qadimiy shahar, o'rta asrlarda savdo va madaniyat markazi bo'lgan.	Arxeologik yodgorlik
Qo'qon Xon saroyi (Xudoyorxon o'rdasi)	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri	1871-yil	Xudoyorxon tomonidan qurilgan katta saroy, Qo'qon xonligining qudratini namoyon etuvchi me'moriy yodgorlik.	Me'moriy yodgorlik
Norbo'tabiy madrasasi	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri	1798-yil	Norbo'tabiy davrida qurilgan madrasa, o'rta asrlar ilmiy va diniy markazi bo'lgan.	Me'moriy yodgorlik
Marg'ilon madrasalari	Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri	O'rta asrlar	Marg'ilonda joylashgan qadimiy madrasalar, o'rta asrlar ilmiy va diniy markazlari.	Me'moriy yodgorlik
Rishton kulolchilik markazi	Farg'ona viloyati, Rishton shahri	Qadimiy davrlar	Rishton shahri qadimiy kulolchilik markazi bo'lib, bu yerda qadimiy kulolchilik an'analari saqlanib qolgan.	Madaniy yodgorlik
So'x qal'asi	Farg'ona viloyati, So'x tumani	O'rta asrlar	So'x shahri markazida joylashgan qadimiy qal'a, o'rta asrlar mudofaa inshooti.	Arxeologik yodgorlik
Chust arxeologik yodgorliklari	Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani	Miloddan avvalgi II–III ming yillik	Chust madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklar, qadimgi dehqonchilik madaniyati namunasi.	Arxeologik yodgorlik
Dalvarzin shahri	Andijon viloyati, Jalaquduq tumani, Dalvarzin qishlog'i	Miloddan avvalgi III asr	Qadimiy shahar xarobalari, Kushon davrida buddaviy ibodatxonalar qurilgan.	Arxeologik yodgorlik
Eylaton yodgorliklari	Andijon viloyati, Izboskan tumani, Eylaton qishlog'i	Miloddan avvalgi VI–III asrlar	Ilk temir davriga oid arxeologik yodgorliklar, qadimgi dehqonchilik madaniyati namunasi.	Arxeologik yodgorlik

MUHOKAMA

Farg‘ona vodiysi arxeologik yodgorliklari nafaqat yurtimizning boy tarixidan dalolat beradi, balki ushbu hududda sayyohlik va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Vodiyning qadimiy shaharlari, hunarmandchilik markazlari va tarixiy joylari xalqimizning moddiy va ma’naviy madaniyatini chuqur o‘rganish imkonini beradi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan arxeologik merosni saqlash, o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha qator huquqiy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-apreldagi “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi PQ-3666-sonli qarori arxeologik meroslarni asrab-avaylashning huquqiy asoslarini belgilab berdi.
- 2020-yilda qabul qilingan “Tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish va asrash bo‘yicha Davlat dasturi” asosida Farg‘ona vodiysida joylashgan tarixiy yodgorliklarni konservatsiyalash va restavratsiya qilish ishlari jadallashdi.

XULOSA

Farg‘ona vodiysi arxeologik yodgorliklari mamlakatimiz tarixiy merosining ajralmas qismidir. Ushbu hududdagi qadimiy shaharlar va yodgorliklar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki sayyohlikni rivojlantirish uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining arxeologik merosni asrab-avaylash va restavratsiya qilish bo‘yicha qabul qilgan qarorlari, ayniqsa, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ular asosida ilmiy hamda madaniy tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anarbaev, Matbabaev B. An Early Medieval Urban Necropolis in Fergana // Silk Road Art and archaeology. The institute of Silk Road Studies. Kamakura. 1993-1994. III. p. 223-249.
2. Матбабаев Б.Х., Батиров А.Р. Костяные изделия Чустского поселения // ИМКУ. Вып. 26. – Ташкент. Фан, 1992. – С. 16-22.
3. https://uzpedia.uz/pedia/fargona_vodiysi_1
4. <https://fergana.uz/news/6724e2f048dba9b825500f67>
5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/xudoyorxon-saroyi/>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Farg%CA%Bona_vodiysi